TUROR RISQULOV IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLIYATINING BOSHLANISHI

B.M.Qandov
Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Milliy g‘oya, ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi” kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada Turkiston mahalliy aholi vakillarning o‘z siyosiy huquqlariga ega bo‘lishlari uchun kurashlari ishtirokchisi Turor Risqulovning siyosiy faoliyatining boshlanishi hamda Turkiston o‘lka muxtoriyati ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy ahvol, madaniy hayotdagi o‘zgarishlar kabi asosiy masala o‘rganilgan. Shuningdek, Turor Risqulovning mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda tutgan o‘rni va ijtimoiy faoliyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Turor Risqulov, Turkiston, qatag‘on, siyosiy rahbar, Tinishpaev Muhammadjon, Qirg‘iziston, Rossiya imperiyasi, ijtimoiy-siyosiy hayot,

XX asr boshlarida Turkiston o‘lkasining asosiy qismi mustamlaka sifatida Rossiya imperiyasi tarkibida bo‘lgan. Buxoro amirligi va Xiva xonligi esa o‘z hududining muayyan qismini boy bergan holda Rossiyaga qaram davlatlar hisoblangan. Davlat va jamiyat hayotidagi muhim voqealar, ayniqsa, bu tarixning yangi burilishlarida, yangi ijtimoiy-siyosiy pozitsiyalardan, ilmiy tafakkur taraqqiyotining yangi bosqichida ro‘y bersa, vaqt o‘tishi bilan idrok etishni taqozo etadi. Shunday qilib, Turkiston o‘lkasining siyosiy hayoti tobora tezkor sur’atlarga ega bo‘la bordi. Bunda musulmon tashkilot va harakatlarining ta’siri kundan-kunga kuchaya bordi. Ular, xususan, podsho Rossiyasining eng chidab bo‘lmaydigan boshqaruv idoralarini butunlay tugatishda sezilarli hissa qo‘shdilar. Biroq Turkiston o‘lka general-gubernatori Kuropatkin joylarga qat’iy buyruq jo‘natgan edi: “Muvaqqat hukumat farmoyishlariga to‘liq bo‘ysunish va mutlaqo tartibni saqlash kerak...”[1].

Turkiston o‘lkasining musulmon aholisi ham faol siyosiy kurash jabhasiga tortildi. 1917 yilning mart – aprel oylari o‘lkaning siyosiy uyg‘onishida burilish davri bo‘ldi. Turkistonda vujudga kelayotgan milliy demokratik kuchlarning etakchisi taraqqiyparvarlar, ya’ni jadidlar bo‘lib qoldi. Ular o‘zlarining avvalgi butun faoliyati bilan shu vazifaga tayyorlangan edilar. Jadidlar Fevral demokratik inqilobiga, shu inqilob e’lon qilgan tamoyillarga katta umidlar bog‘lab, uning g‘oyalari va shiorlarini amalga oshirishga faollik bilan kirishdilar. SHu davrda ular xalq ongi-shuurida jipslashish, milliy birlikni mustahkamlash ehtiyojini uyg‘otish bobida muhim qadamlar qo‘yishga muvaffaq bo‘ldilar.

Turkiston o‘lkasidagi faol siyosiy kurash ishtttirokchiliridan biri, Turor Risqulovich Risqulov – Turkiston turkiy xalqlari milliy-ozodlik harakati etakchisi, atoqli davlat va jamoat arbobi, atoqli olim, publitsist, tarixchi, diplomat. Turkiy xalqlarni birlashtirish va “Yagona Turkiston” g‘oyasini amalga oshirish yo‘lidagi faol kurashchi. Turkistonning tub xalqlarining siyosiy huquq va erkinliklari, ularning yangi kelgan evropalik aholisi bilan tengligi va Sharqdagi inqilobiy harakat masalalari haqida so‘zlagan atoqli nazariyotchi va mutafakkir. Kominternning (Kommunistik

Internasional 1919 – 1943 yillarda turli mamlakatlar kommunistik partiyalarini birlashtirgan xalqaro tashkilot) Mo‘g‘ulistondagi vakili sifatida diplomatik va emissarlik faoliyati bilan shug‘ullanib, mustaqil Mo‘g‘uliston davlatining shakllanishiga katta hissa qo‘shgan.

Turor Risqulov 1894 yil 26 dekabrda Turkiston vohasi Ettisuv viloyati (hozirgi Olmaota viloyati) Vernenskiy tumani Sharqiy Talgar volostida Besagash traktida chorvador Risqul Jilqaydarov[2, 7] oilasida tug‘ilgan. Uning bolaligi qiyin kechgan. 1921 yil mart oyida u o‘zining tarjimai holida bu haqda shunday yozadi: “Uzoq vaqt davomida ochlik e’lon qilgan, hatto “yaxshi kunlarda” ham, ba’zan faqat suyultirilgan un bilan suv iste’mol qilgan (“bylamiq” - bu ko‘chmanchi xalq ko‘pchiligining orasida keng tarqalgan ovqat turi), o‘z qarindoshlarimga, ya’ni biylarga tiyin topish maqsadida cho‘ponlik qilganliklari, bu biylar ko‘pincha qamchi bilan taqdirlagani – bu mening bolaligimning eng katta qismi edi”[3, 127]. Uning otasi Risqul o‘zi kambag‘al bo‘lishiga qaramay, o‘jar va mag‘rur xislatga ega edi. 1904 yil 20 dekabrda tuhmatning begunoh qurboni bo‘lgan Risqul Sharqiy Talgar volost boshqaruvchisini o‘ldirishga qaror qildi. Bir marta sabr-toqatini yo‘qotgan Turorning otasi volost boshqaruvchisini otib tashladi, boshqaruvchining qarindoshlarining qatag‘onlaridan yashirindi va keyin Vernenskiy qamoqxonasida ko‘p oylarni tergov qilindi. Jandarmeriya Risqulni qidiruvga berib, uning qarindoshlarini, jumladan 10 yoshli Turorni avval Talgardan Besagash qishlog‘iga, keyin Burundayga majburan ko‘chirdi. Yolg‘iz o‘g‘li va yaqinlarining taqdiridan xavotirga tushgan Risqul o‘zini militsiyaga topshirishdan boshqa chorasi qolmaydi hamda u o‘z ixtiyori bilan militsiyaga taslim bo‘ladi. 1904 yil 30 dekabr kuni u hibsga olinib, Vernenskiy qamoqxonasiga tashlangan. Sud Turorning otasini Saxalinda 10 yillik og‘ir mehnatga hukm qildi. 1906 yil 28 iyulda Risqul Kopalsk-Ayaguz-Semipalatinsk yo‘li bo‘ylab uzoq Sibirga piyoda surgun qilindi[13]. Risqulning hayoti, uning mustamlakachi hokimiyat bilan to‘qnashuvi Muxtor Omaranovich Auezovning “Qorash-Qarash dovonidagi o‘q” hikoyasida, hamda taniqli yozuvchilar Temirgali Tolemisuli Nurtazin va Sherxan Murtazolarning asarlarida yoritilgan.

Qamoqxona rahbariyatiga qayta-qayta murojaat qilganidan keyin Turorni yoniga olishga muvaffaq bo‘ladi. Turor otasining yonida bir yildan ortiq qamoqxonada yashaydi. Otasidan qattiq qayg‘urgan Turor qamoqxona hovlisida uning yonida bo‘lib, qamoqxona boshlig‘ining buyrug‘ini bajarar, hovli tozalash, chorva mollarini boqish, qo‘riqchi Prixodkoning bolalarini Vernenskiy gimnaziyasiga o‘qish uchun aravada olib borish bilan shug‘ullanadi. U mahbuslarni tayyorlash kurslarida rus savodini puxta o‘zlashtira boshlaydi. Bu erda uning “hayot maktabi” shunday boshlangan. Qamoqxonada jazo o‘tayotgan inqilobchilar Turorga balalayka, mandolin, akkordeon, dombra, skripka chalishni, o‘qish va yozishni o‘rgatgan. Ular bilan muloqot, suhbatlar, qo‘shiqlar va hikoyalar - bularning barchasi T.Risqulovning kelajakdagi inqilob rahbari sifatida shakllanishiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatdi[4, 227].

Tog‘asi Turorni qatag‘ondan qutqarib, bolani Avliyo-Ota tumaniga olib brogan va shu erda Turor mahalliy boy qo‘lida cho‘pon bo‘lib ishlagan. Biroq, matonat va tabiiy iste’dod uni tinmay o‘qib yurishiga undaydi. U o‘z tarjimai holida shunday yozgan edi: “Bir tomondan, shunday vahshiy hayot sharoitida o‘sgan bo‘lsam, ikkinchi tomondan, mening qat’iyatim bilan Evropa ma’rifatiga erishish - mening tarjimai holimga xos narsa”[3, 127].

T.Risqulov o‘z xotiralarida hayotning ushbu davri haqida gapirar ekan, volost ma’muriyatining zulmi, qabilalararo nizolar qanday avj olgani, ayblar isbotsiz ravishda mayda urug‘larning eng kam ta’minlanganlari elkasiga yuklangani haqida gapirardi. Turor Risqulov yoshligidan mahalliy qozoq boylari va ko‘chib kelgan rus qulaklari tomonidan turli tahqir va zulmlarga duchor bo‘lganligi sababli, o‘zini himoya qilishga majbur bo‘ldi hamda tengdoshlariga nisbatan erta ulg‘ayadi. Bu hayot qiyinchiliklari, keyinchalik milliy va ijtimoiy zulmga qarshi kurash uning hayotiy ishiga aylanishiga asos bo‘ldi.

1907 yilda Avliyo-ota uezdidagi Merke qishlog‘ida yashovchi qarindoshlari Turor Risqulovni o‘zlari bilan olib ketishadi va mahalliy rus-tuzem maktabiga o‘qishga yuborishadi. Avval birovning nomi bilan uch yillik rus-qozoq maktabini tamomlagan, Vernenskiy cherkov maktabida o‘qigan, Merkadagi rus-tuzem maktab-internatini, so‘ngra 1914 yilda Pishpek qishloq xo‘jaligi maktabini tamomlagan. Bu maktabni o‘z vaqtida Qirg‘izistonning ko‘plab davlat amaldorlari, masalan, avtonom Qirg‘izistonning birinchi rahbari bo‘lgan I.Aidarbekov ham tugatgan.

Turor Risqulov bobosi (onasining otasi)ning, sudxo‘rlik evaziga kun ko‘ruvchi Merken boylari oldidagi qarzlari ular tomonidan har xil zulm va quvg‘inlarga sabab bo‘ldi, yosh Turor ham bu tazyiqlarga duchor bo‘ldi. Boylar bobosining bor chorva mollarini zo‘rlik bilan tortib oldi. Turorning o‘zi esa bu chorva mollarni 30 kilometr narida joylashgan bozorga piyoda haydashga va yo‘l bo‘yi boylarning qamchilaridan zarba olishga majbur bo‘ldi. Bu voqeadan keyin Turor Risqulov tergovchi A. Semashkoga chopar bo‘lib ishga olinadi.

Mavjud muammo va qiyinchiliklarga qaramay, Turor Risqulov ilm olishga, o‘qishga g‘ayrat ko‘rsatgani Merken maktabi o‘qituvchilari tomonidan yuqori baholandi. O‘qishni tugatib, unga tavsiyanoma topshirib, Pishpek qishloq xo‘jaligi bilim yurtiga (hozirgi Bishpek shahri) yuborishadi. 1914 yilning kuzida Turor Risqulov bog‘dorchilik fakultetini muvaffaqiyatli tugatdi. Turor Pishpekda qirg‘iz elitasining ko‘plab ko‘zga ko‘ringan vakillari bilan uchrashdi, ular keyinchalik milliy davlatchilikni tiklashda muhim rol o‘ynadi. Ulardan A.Sidiqov, I.Aydarbekov, I.Arabaev, T.Xudaybergenov va boshqalarni qayd etishimiz mumkin. Turor Risqulovning o‘rganish istagi hayratlanarli. O‘qishni tamomlagach, o‘qishni davom ettirishga intilgan Turor Risqulov Samaradagi 1-darajali qishloq xo‘jaligi bilim yurtiga hujjatlarini topshiradi. Biroq, kirish imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirganiga qaramasdan, shuningdek, 250 nafar abiturient orasida yagona qozoq millati vakili bo‘lganiga qaramay, qabul komissiyasi uni o‘qishga qabul qilishni rad etgan. Uni Samara qishloq xo‘jaligi maktabiga qabul qilish rad etildi, chunki uning direktori ko‘chmanchi xalq vakili qishloq xo‘jaligini o‘rganishga hojat yo‘qligiga ishora qildi. Muvaffaqiyatsizlikka uchragan Turor Risqulov butun 1915 yilni Tulkiboshidagi qarindoshlarinikida o‘tkazadi. O‘sha paytda bu erda Semirechenskaya temir yo‘lining Aryssko-Auleatinskiy uchastkasi qurilishi ketayotgan edi. Qurilish ishlarini Sankt-Peterburg instituti bitiruvchisi, muhandis Muhammadjon Tinishpaevich Tinishpaev boshqargan. M.Tinishpaev asli kelib chiqishi Ettisuvlik bo‘lganligi uchun ham mard Risqulning misli ko‘rilmagan qilmishi haqida ko‘p eshitgan, shu bois o‘g‘li Turor Risqulov yaqin atrofda ekanini bilgach, u bilan yaqindan tanishishga qaror qildi. Turor Risqulovning hayotiy qarashlari, keng dunyoqarashi, yoshidan ham etuk va noan'anaviy (kreativ) fikrlash qobiliyati, mard fe'l-atvori M.Tinishpaevga yoqimli taassurot qoldirdi. Unga o‘qishni to‘xtatmaslikni qat'iy maslahat beradi va o‘z jamg‘armasidan mablag‘ ajratib beradi. Turor Risqulov og‘ir pallada unga yordam qo‘lini cho‘zgan M.Tinishpaevning bu ezgu ishini doim eslab yurar. Keyinroq o‘zi ham, Muhammadjon va uning o‘g‘li Eskendirga ham qo‘lidan kelganicha yordam berishga harakat qiladi[5, 110-112].

Turor Risqulov Toshkentga kelib o‘qituvchilik institutiga o‘qishga kirishga harakat qiladi. u ham muvaffaqiyatsizlikka uchradi – Turorni chet ellik deb rad etishdi. Uning Turkiston o‘lkasi ta'lim muassasalari inspektori Solovyov nomiga yozma arizasi javobsiz qolada. "... Men musulmonman, Rossiya imperiyasining qonunlar kodeksiga ko‘ra, faqat pravoslav xristianlar institutga qabul qilinadi"[3, 130]. Uning Rossiya imperiyasi Xalq ta'limi vazirligiga yo‘llangan xat ham hech qanday o‘zgarishlarga olib kelmadi. Keyinchalik, Sankt-Peterburgdagi Maorif vazirligiga yangi ariza kelib tushdi, ruxsat olindi va 1916 yilgi dahshatli voqealar haqidagi xabar unga etib borgunga qadar ikki yil o‘qituvchilar institutida o‘qidi. Biroq bu qiyinchiliklar Turor Risqulovni sindira olmadi. Toshkent yaqinidagi Krasnovodsk qishloq xo‘jaligi tajriba stansiyasida bog‘bon bo‘lib ishlab, Toshkent erkaklar gimnaziyasida sirtqi bo‘limida o‘qib, uni tamomlagandan so‘ng 2-toifali erkin tinglovchi guvohnomasi bilan taqdirlangan[6].

1916 yilda Turor Risqulov Rossiya imperiyasi hukumatining mustamlakachilik siyosatiga qarshi bosh ko‘targan o‘z ona xalqi tomonida edi[7, 13-20]. Turor o‘qishni tashlab, Rossiya Imperiyasi ma'muriyati va mahalliy hukmdor elitasiga qarshi kurashda kambag‘allar manfaatlarini himoya qilganlar safiga qo‘shilishga qaror qiladi. Qo‘zg‘olon paytida Turor Risqulov Toshkentni tark etib, Merkega keladi. Yoshligiga qaramay (u endigina 20 yoshda edi), Turor allaqachon vaziyatni baholab, to‘g‘ri qaror qabul qila oldi, shu tufayli u Qozog‘istonning janubi-g‘arbiy qismidagi milliy-ozodlik harakatining etakchisiga aylana boshladi, u erda qo‘zg‘olonchilar va jazolovchi qo‘shinlar o‘rtasida keskin to‘qnashuvlar bo‘lgan[8, 137, 5-9, 9, 231]. Qo‘zg‘olon kuchaygan davrda mahalliy militsiya Turor Risqulovni faol ishtirokchilardan biri sifatida hibsga oladi, biroq uning aybini isbotlay olmay, uni ozod qilishga majbur bo‘ladi. Politsiya Turor

Risqulovdan siyosiy ishlar bilan shug‘ullanmasligi haqida tilxat yozirib oldi. Keyin og‘ir kasal bo‘lib qoladi va tuzalib, o‘qishni davom ettirish uchun Toshkentga qaytib keladi. Bu vaqtda u avtokratiyaning ag‘darilishi haqida bilib oladi. Bu yangilik oddiy xalq tomonidan katta qiziqish bilan kutib olindi. “Rossiya imperiyasi bo‘yinturug‘i ostida o‘nlab yillar davomida to‘plangan milliy o‘z taqdirini o‘zi belgilashga chanqoq yoshlar jon berdi. Hamma shaharlarda, hatto qishloq va mahallalarda ham namoyishlar uyushtirildi”[4, 236], deb eslaydi keyinroq T.Risqulov.

1916-yil sentabrda Toshkentga qaytib kelgan T.Risqulov imtihon topshirishga ruxsat olib, Toshkent o‘qituvchilar institutiga o‘qishga kiradi[9]. Qarindoshlarining ko‘magidan mahrum bo‘lgan Turor Risqulov doimiy ravishda moddiy qiyinchiliklarni boshdan kechiradi, shuning uchun u o‘qishni bog‘bonlik bilan birlashtirishga majbur bo‘ldi. 1916 yil oktabr oyida u institut direktoriga quyidagi mazmundagi xat yozadi: “Kelgusi qishni hisobga olib, kiyim-kechak, masalan, galosh, ko‘rpa, ichki kiyim, shuningdek, o‘quv qurollarini sotib olishni xohlayman, lekin. Bularni olish uchun pulim yo‘q, men sizdan imkon qadar ko‘proq moddiy yordam so‘rashga majburman, chunki mening na ota-onam, na yordam kutilishi mumkin bo‘lgan biron bir muhim shaxs yo‘q. 1916 yil 19 oktyabr, T.Risqulov”[10]. Institut direktori Turorni qiyin ahvolda ekanligini bilib, unga 70 rubl ajratishni buyuradi. Maktubdan Turor Risqulovning ijtimoiy-maishiy ahvoli naqadar og‘ir bo‘lganini ko‘rish mumkin.

1917 yilgi fevral inqilobiy voqealar girdobi yigitni o‘ziga singdirdi. 1917 yilning yozida u qozoq va qirg‘iz kambag‘allarining manfaatlarini himoya qilish uchun Avliyoota tumanida (hozirgi Qirg‘iziston va Qozog‘iston hududining bir qismi) “Buxoro” inqilobiy ittifoqining bo‘limini tuzdi va 1917 yil sentyabrda u Rossiya Sotsial-demokratik mehnat partiyasi (RSDRP) (b) a’zosi bo‘ladi. SHu paytdan boshlab Turor Risqulov jadal davlat arbobi sifatida shakllandi: u qozoq deputatlarining qurultoyini o‘tkazdi, Markaziy Ijroiya Qo‘mitasiga saylandi, Turkiston sog‘liqni saqlash komissari lavozimiga tayinlandi, 1918 yil noyabrda esa Chekada ochlik qarshi kurash olib bordi. Turor Risqulov barcha lavozimlarda o‘z tabiatining g‘ayrioddiy xususiyatini namoyon etdi: u fidokorona, maqsadli, to‘liq fidoyilik bilan ishladi. Siyosiy beqarorlikning og‘ir davrida ko‘chmanchi xalqning siyosiy huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy mavqeini himoya qilish uchun T.Risqulov “Buxoro” tashkilotini tuzdi. Keyinchalik T.Risqulov siyosiy o‘zgarishlar ta’sirida tashkilot nomi “Qozoq yoshlari inqilobiy ittifoqi”ga o‘zgarganligini ta’kidlaydi. Ilk bor ushbu tashkilotning nizomi va dasturini 1925-yilda yozilgan o‘zining “Inqilob va Turkistonning tub aholisi”[11, 218] to‘plamida, bir necha yildan so‘ng, 1930-yilda S.M. Dimanshteyn tomonidan tuzilgan boshqa to‘plamga kiritilgan[12, 366-368].

Mintaqada dastlabki demokratik hukumat bo‘lgan Turkiston Muxtoriyatining oradan ko‘p o‘tmay bolsheviklar tomonidan tugatilishi bilan sovet rejimiga qarshi qurolli harakat boshlandi. Shu bilan birgalikda Turor Risqulov va Nizomiddin Xo‘jaev singari bir guruh mahalliy kommunistlar sovet hukumati va bolsheviklar partiyasi idoralarida faoliyat ko‘rsatib, bolsheviklar siyosatini Turkistondagi mahalliy sharoitga moslashtirmoqchi bo‘lishdi. Shuning uchun ular mahalliy aholining o‘ziga xos boshqaruv organini tuzishga harakat qildilar.

Shu nuqtai nazardan, Turor Risqulovdek siyosiy rahbarning faoliyati Turkiston tarixining o‘rganilmagan sahifasi bo‘lib, ayniqsa, bu tarixning fojiali bosqichlari – o‘tgan asrning 30-yillari totalitar tuzumining o‘zgacha fikrga qarshi kurashi va qatag‘onidir. Sobiq KGB arxivi va Qirg‘iziston Siyosiy hujjatlar markaziy arxividan olingan ba’zi maxfiy hujjatlar mard, tashabbuskor siyosatchi, iste’dodli tashkilotchi, rus inqilobi g‘oyalarini yosh milliy respublikada hayotga tatbiq etishni istagan Turor Risqulov hayotida yangi sahifalarni ochishga imkon beradi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O‘zbekiston MDA), I-2-fond, 1176-ish, 3-varaq.

2. Қоңыratbaev O.M. Тұrar Rысqұlovtың qog‘amdық-sayasi jәne memlekettik qызmetinің kүnderegi. Bioxronikalық zertteu. 1 tom (1894 – 1919 jj.). – Taraz: «Format-Print» baspasы, 2014. – 7 b.

3. Karımsakova A. Turar Rıskulov v istorii Kırgızstana. Dokumentalnıe vexi biografii // A. Karımsakova, S. Omurzakov, V. Ploskix // otv. red. d-r ist. nauk Z. K. Kurmanov. – Bishkek: Neo Print, 2016. – S.127.

4. Rıskulov T. Iz istorii revolyusionnoy borbı v Kazaxstane // Izbrannıe trudı. – Alma-Ata, 1984. – S.227., 236.

5. Alash qozg'alısı. Qұjattar men materialdar jinag'ı. Qantar 1929 – shilde 1938 jj. // Dvijenie Alash. Yanvar 1929 g.– iyul 1938 g. 3 tom, 2 kniga. – Almatı: El-shejire, 2007. – 110-112 b.b.

6. O'zbekiston MDA, R-86-q., 1-fond, 1525-ish, 7-varaq.

7. Qoңıratbaev O.M. Tұrar Rısqұlov jəne 1916 jılg'ı ұlt-azattıq kəterilis məseleleri // «Ұlt-azattıq qozg'alıstar tarixı: təuelsizdikke bastar jol» atty respublikalıq g'ılımi-teoriyalıq konferensiya materialdarı. Abay atındag'ı QazҰPU, 17 mausım, 2011 jıl = «Istoriya natsionalno-osvoboditelnıx dvijeniy: put k nezavisimosti». Materialı respublikanskoy nauchno-teoreticheskoy konferensii. – Almatı: KazNPU imeni Abaya, 2011. – 13-20 str.

8. Pobeda Sovetskoy vlasti v Sredney Azii i Kazaxstane. Tashkent, 1967. 137 str; 5, 9 str; 2, 231 str.; Vosstanie 1916 goda v Sredney Azii i Kazaxstane. M., 1960. – 9 str.; Rıskulov T. Iz istorii revolyusionnoy borbı v Kazaxstane // Izbrannıe trudı / T. Rıskulov. Alma-Ata, 1984. – S.231.

9. O'zbekiston MDA, R-86-q., 1-fond, 1525-ish, 79-varaq.

10. O'zbekiston MDA, R-366-q., 1-fond, 29-ish, 12-varaq.

11. Rıskulov T. Revolyusiya i korennoe naselenie Turkestana. Sbornik statey, dokladov, rechey i tezisov s predisloviem avtora. CHast I. 1917 – 1919 gg. – Tashkent: Uzbekgosizdat, 1925. – 218 str.

12. Revolyusiya i natsionalnıy vopros. Dokumentı i materialı po istorii natsionalnogo voprosa v Rossii i SSSR v XX veke / Pod red. S.M. Dimanshteyna. T.3. (1917 g., fevral – oktyabr). Sost.: I. Levin i E.Drabkina. – Moskva: Izd. Kommunisticheskoy akademii, 1930. – S. 366-368.

13. O'zbekiston MDA, R-86-q., 1-fond, 1525-ish, 4-6-varaqlar; «Risqul Jilqaydarov ishi» QR MDAning 44-q., 1-t., 8898, 9014, 9102 ishlarida saqlanib kelinmoqda.

14. Rajabov Q. O'zbekiston XX asrda. Birinchi jild (1900-1939). – Toshkent: "Fan", 2024. – B.752.